



Илмий – амалий конференция
материаллари

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish/

Shunday qilib bolalar kreativ qobiliyatini rivojlantirishda kreativ jarayon va kreativ metodlarning ahamiyati nihayt katta dir. Bunday jarayon har kungi standartlashtirilgan ma'g'ulotlar va boshqa mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi, bolalar ularda o'zlarini erkin his etadilar. Shu bilan birga ularda yangi-yangi g'oyalar yaratish, ularni amaliyotda qo'llay bilish ko'nikmasi rivojlanadi. Zero, jamiyatimiz ham iqtidorli va kreativ fikrlovchi avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishdan manfaatdor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.)

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.)

3. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения :http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.

4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.

TABIY FANLARNI O'RGANISHDA AMALIY METODLARNING O'RNIVA ULARNING TASNIFI

*(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti:
Nurmaxmatov L.A.*

Yer sharida va undagi bo'ladigan jarayon hamda hodisalarni o'rganadigan ta'lim sohalarida ularning aksi yoki tasviri o'quv bilimlarining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan Yer shari haqidagi fanlarni o'zlashtirishdagi ta'lim jarayonini obyektiv boshlanishiga tabiatshunoslik bilimlari haqidagi manbalarida ajratilgan metodlar to'liq javob beradi.

Bilim manbalariga ko'ra, tabiiy va ekologiya fanlari

ta'limida metodlar guruhini ajratish uchun metodologik asos bo'lib, obyekt va metodlarning o'xshashligi, ularni tabiiy fanlarda o'zlashtirilishi hamda tabiiy fanlar ta'limining falsafiy tasavvurlari xizmat qiladi. Bu yerda umumiy bo'lib, obyektning o'rganishdagi subyekt faoliyati hisoblanadi. Ilmiy bilishda obyekt – atrof muhit, subyekt esa – obyekt faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotchi va uning faoliyati.

Tabiiy fanlar ta'limida obyekt sifatida o'quv predmetining mazmuni xizmat qiladi, subyekt esa – bu mazmuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quvchi faoliyatidir. Ta'lim olish jarayonini o'qituvchi boshqarib turib, ya'ni o'quvchining predmet mazmunini o'zlashtirishida, o'quvchiga bilishning ratsional usullari va vositalarini tanlashga yordam beradi. Ana shu sababdan maktab tabiiy fanlarini o'zlashtirishida ta'lim metodlari tatbiq etilishi mumkin. Xaritalar, natural obyektlar va modellar, tabiatda kuzatish bilan ishlash – bular faoliyatning turlari bo'lib, tabiiy fanlarda tadqiqot faoliyati bilan ularning bog'liqligi ravshan. Shunday qilib, tabiiy ilmiy fanlarni o'qitish metodikasi sezilarli ravishda ta'lim metodlaridagi fanlar metodlarining didaktik moslashuvi hisobiga rivojlanadi.

Tabiiy fanlarda bilimlar manbasiga ko'ra, ta'lim metodlarini tasniflash, quyidagi metodlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

1. Amaliy metodlar (tabiatdagi obyektlar va hodisalarni kuzatish, ular bilan tajriba o'tkazish).

2. Ko'rgazmali metodlar (ko'rgazmali obyektlar, turli ko'rgazmali qo'llanmalar bilan ishlash).

3. So'zli metodlar (hikoya, suhbat, dialog, ma'ruza).

Ko'rgazmali metodlar (kuzatish, kartinalarni tomosha qilish, modellarni namoyish qilish, kinofilmlar, hujjatli filmlar) bolalarning bilish faoliyat imkoniyatlariga to'liqligicha mos keladi, tabiat haqida ularda yorqin, aniq tasavvurlarni shakllantirishga imkon beradi.

Tabiat bilan tanishish jarayonida ta'limning amaliy metodlaridan foydalanish (o'yin, elementar tajribalar va modellashtirish) o'qituvchiga bolalarni tasavvurini aniqlashtirishga, ularda tabiatning alohida predmetlari va hodisalari o'rtasidagi munosabatlar, bog'lanishlarni o'rnatish va chuqurlashtirishga, olingan bilimlarni

tizimlashtirishga imkon beradi.

Soʻzli metodlardan (oʻqituvchi va bolalarning hikoyalari, tabiat haqidagi badiiy asarlarni oʻqish, suhbatlar) bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish uchun foydalaniladi, ular bolalarda tabiatga nisbatan emotsional ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiatni oʻrganishda yetakchi metodlardan bittasi – amaliy metodlardir. Taʼlimning amaliy metodlari – oʻquvchilar oʻz bilimlarini oʻzlashtirish jarayonlarining turli faoliyatlarida tatbiq etish bilan tavsiflanadi. Bu reja ishlab chiqish, obyekt bilan tanishish, topshiriqni anglash va uni bajarishdagi amaliy ish, natijalarni rasmiylashtirish, bajarilgan ish yuzasidan xulosa chiqarish va shu kabilar. Tabiatshunoslikni oʻrganishda amaliy metodlardan keng foydalaniladi, shu sababdan tabiatdagi predmet, obyekt va hodisalar yaxshi oʻzlashtiriladi.

Amaliy metodlar soʻzli va koʻrgazmali metodlar bilan chambarchas bogʻlangan (oʻqituvchi tomonidan amalga oshirila digan ishning koʻrsatilishi va tushuntirib berilishi). Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda turli metodlardan majmuaviy foydalanish, ularni bir-biri bilan toʻgʻri uygʻunlashtirish lozim.

Qandaydir amaliy topshiriqni bajarishda oʻqituvchi oʻquvchilar oldiga vazifani qoʻyadi hamda uning bajarilish tartibini ochib beradi. Bu yerda shu narsa muhimki, topshiriq muammoli qilib tashlanishi kerak. Topshiriqni yechish jarayonida oʻquvchi undagi bor bilim zaxirasidan foydalanishi, amaliy va tafakkur faoliyatini ishga qoʻshishi zarur. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni oʻzlashtirish oʻquv jarayonini faollashtiradi, oʻquvchilarda mustaqil likni va ijodiylikni rivojlantiradi. Maktabda ishlash tajribasi shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilar tomonidan faol faoliyat jarayonida orttirilgan bilim, nafaqat oson va ongli oʻzlashtiriladi, balki juda mustahkam ham boʻladi.

Faol amaliy va tafakkur faoliyati jarayonida yangi bilimlarni oʻzlashtirish zarur boʻlganda taʼlimning amaliy metodlaridan foydalaniladi. Taʼlim jarayonida amaliy metodlarni tatbiq etish nafaqat yangi bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi, balki yangi holatlarda ularni oʻzlashtirish va tatbiq qilish uchun amaliy koʻnikmalarni shakllantiradi.

Amaliy metodlarga kuzatish, laboratoriya tajribalarini oʻtkazish, obyektlarni aniqlash borasidagi ishlar, tabiatshunoslik asboblari bilan ishlash, oʻquv-tajriba hududidagi tabiat burchagida amaliy ishlarni olib borishlar kiradi.

Shunday qilib, tabiatni oʻrganishda yetakchi metodlardan biri – amaliy metodlar ekan. Kuzatish va tajriba asosiy metodlar boʻlib, bu ikkala metod didaktika nuqtayi nazaridan ular bir-biriga juda yaqin, chunki tajriba va kuzatishlar natijasida oʻquvchilarda kuzatuvchanlik rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bahromov A., SH. SHaripov., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. 4-sinf uchun. -T.: 2017.-118 b.
2. Bahromov A., SH. SHaripov., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. 3-sinf uchun darslik "Choʻlpon" nashriyoti. -T.: 2016
3. Maminova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam. 1-sinf uchun darslik. "Oʻqituvchi" nashriyoti. T.: - 2018.

ШАХСИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШ – ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

*Магистрант Раимбердиев Асқаржон
Илмий раҳбар: доц. Нуруллаева Ш.*

Юртимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар самараси жамият аъзоларининг фаоллиги, масъуллигига ва энг асосийси уларнинг интеллектуал камолотига боғлиқдир. Зеро, давлат сиёсатида устувор соҳа деб белгиланган таълим соҳасидаги ислохотлар ҳам айнан ёшларнинг интеллектуал жиҳатдан ривожлантириш ҳамда иқтидорликни рағбатлантиришга қаратилгандир.

Жамият аъзоларининг интеллектуал жиҳатдан ривожланиши узок давр мобайнида амалга ошадиган жараён бўлиб, унинг асосини у яшаб турган ижтимоий муҳит ва тарбия белгилайди.

Муҳит – бу инсоннинг ўраб турган муҳит - теварак-атроф, кишилар, оила, маҳалла, меҳнат фаолиятини юритиш-диги жамоа ва шу кабилар.

Мундарижа

№	Муаллиф Ф.И.Ш.	Мақола мавзуси	бет
1	<i>Eshboyev E., Bozorov A.</i>	Tanlanma fayllarning miqdoriy alomatlari hissalarini hisoblash	3
2	<i>Jamolov Sh. Nodirov Sh.D.</i>	Bir o'Ichamli simpleksda aniqlangan kubik stoxastik operatorning qo'zg'almas nuqtalari haqida	4
3	<i>Rajabova O.B. Hayriddinov B.E.</i>	Gelioteplitsa parrandachilik binosining teplofizik va energetik masalalari	7
4	<i>Rajabova O.B., Abdullaev A.I. Hayriddinov B.E.</i>	Махаллий иссиқлик сақловчи қурилиш материалларини иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини аниқлаш	11
5	<i>Raximov A. Dilmurodov N.</i>	Jukovskiy funksiyasining iteratsiyalari	16
6	<i>Umarova III. X. Yangiboev Z.III.</i>	Обобщенная задачи коши для волнового уравнения	18
7	<i>Xurramov O. Meiliev X.</i>	Ikki o'lchovli simpleksda aniqlangan mendel va bernulli o'lchovlari orasidagi bog'lanish	21
8	<i>Shoimov B.S</i>	Kasr tartibli integro-differensial operator qatnashgan parabolik-giperbolik tipdagi tenglama uchun chegaraviy masalalar	23
9	<i>Iskandarova Sh.A.</i>	O'smir yoshlarning salomatlik ko'rsatkichlari	26
10	<i>Omonov O.</i>	Ҳисор давлат кўрикхонаси дендрофлорасининг турлар таркиби	28
11	<i>Самадова Н.Н., Бурянова Г.Б</i>	Ҳомиладор аёлларда тўғри овқатланишнинг ўзига хос хусусиятлари	36
12	<i>Умедова Ш.Н.</i>	Ўсмир-ёшларнинг жисмоний ривожланишида соғлом овқатланиш	39

13	<i>Xosilova G., Ismoilova G. Davronov B</i>	Tallimarjon suv ombori faunasi va bioekologik xususiyatlari	43
14	<i>Yusupov B.B.</i>	O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishda jahon tajribasini qo'llash	45
15	<i>Акбарова М. А. қизи</i>	Болаларни спортга йўналтиришда ота-оналарга психологик тавсиялар.	49
16	<i>Бекова Ш.Ж.</i>	Мактабгача ёшдаги болалар коммуникатив қобилиятларини шакллантиришда ўйин фаолиятининг ўрни	52
17	<i>Ганиев Б.</i>	Ўқувчиларда ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришда техник моделлаштириш ва конструкциялашнинг ўрни.	55
18	<i>Ғойимов У.Э. Турдиев Ш.</i>	Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда мултимедиа воситаларидан фойдаланиш.	57
19	<i>Жабборов И.А.</i>	Ёш оилаларда эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	60
20	<i>Zikirova N., Ochilova N.</i>	Zamonaviy o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahorati	63
21	<i>Keldiyarova V. B. Oripova.N.</i>	Xalq og'zaki ijodi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkuri shakllantirishning manbai sifatida	66
22	<i>Muxammadiyeva A. Oripova N.X.</i>	Мактабгача yoshidagi bolalarni kreativlikka o'rgatish metodikasi	68
23	<i>Nurmaxmatov L.</i>	Tabiiy fanlarni o'rganishda amaliy metodlarning o'rni va ularning tasnifi	70